

KOMRON MIRZO SHE'RIYATIDA BOBURONA OHANGLAR**Raxmatov Nozim Botir o'g'li**

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs magistranti

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng milliy o'zligimizni anglashga, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, "Bobur" Xalqaro Xayriya Jamg'armasi tashabbusi bilan ko'plab ajdodlarimizning o'zga ellarda qadrsizlanib yotgan qabrlari aniqlanib, ularning o'rnida muhtasham maqbaralar qad rostladi. Amir Temur va temuriylar, Bobur va boburiylar haqidagi haqiqatlar o'z ifodasini topdi. Ularning hayoti, ijodi, bizga qoldirgan boy merosiga yangicha, haqqoniy yondashila boshlandi. Sobiq sho'rolar tuzumi davrida Imom al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Husayn Boyqaro, Muhammad Rahimxon Feruz kabi buyuk bobolarimizning ijodi qariyb o'rganilmadi. O'rganilganda ham, ularning asarlaridagi g'oyalar talqini buzib, sobiq sho'ro tuzumi mafkurasiga moslashtirilib, biryoqlama o'rganildi. Ana shunday ijodkorlardan biri adabiyotimiz tarixida kam o'rganilgan, ammo ko'plab ilmiy va badiiy yangiliklarga boy va asos bo'la oladigan boburiy hukmdor, davlat arbobi va shoir Komron Mirzo bo'lib, biz ushbu maqolamizda Komron Mirzo merosining ayrim qirralariga to'xtalib o'tamiz.

Bugungi kungacha Komron Mirzo devonining 3 ta qo'lyozma nusxasi saqlanib qolgan. Ulardagi turkiy she'rlar 40 ta g'azal, 21 ta fard, 26 ta ruboiy, 3 ta qit'a, 9 ta masnaviy va tarkibbanddan iborat bo'lib, jami 1114 misrani tashkil etadi. Dariy, ya'ni forsiy tildagi she'rlari esa 26 ta g'azal, 22 ta fard, 4 ta ruboiy, 4 ta masnaviy va 3 ta qit'adan iborat bo'lib, 346 misrani o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, komronshunos olimlar tomonidan o'rganilgan tadqiqotlarga ko'ra, Komron Mirzo devonining qo'lyozma nusxalariga kirmagan dariy tilida bitilgan ba'zi g'azal, ruboiy va fardlari turli tazkira hamda bayozlardan topilgan. Shunday qilib, Komron Mirzoning hozirgacha ma'lum dariy tilidagi she'rlari 418 misradan iborat. Keltirilgan bu dalillar Komron Mirzoning turkiy til bilan birgalikda dariy, ya'ni forsiy tilda baravar ijod qilgan nuqtadon shoir ekanligidan dalolat beradi. Tarixdan ma'lumki, Komron Mirzo Boburning o'g'li bo'lgan. U otasining saltanatni boshqarishdagi mashaqqatlarni o'z ko'zi bilan ko'rganligi va o'zi ham hukmdor sifatida shu kabi tuyg'ularni boshdan kechirganligi uchun uning she'rlarida Boburga xos ohanglar, boburona tuyg'ular hassoslik bilan ifodalanganligini kuzatish mumkin.

Bobur ruboiylaridan birida o'z umrining achchiq-chuchuk kunlaridan so'z ochar ekan, ayni 19–20 yoshlarida g'ayrati dunyoga sig'magan paytlari Samarqandni ikki marta olib, ikki marta ham tashlab chiqishga majbur bo'lganligini, Andijon xiyonatchilar qo'liga o'tib, 2 – 3 yil tog'-u toshlarda sarson-sargardon yurib, azob-uqubatlarning, xiyonatlarning jondan bezdirganligini shunday ifodalaydi:

*Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar bo'lmasa olamda
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.*

Bizga tarixdan ma'lumki, buyuk Sohibqiron Amir Temur vafot etgach, temuriylar o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanadi. Bu kurash Husayn Boyqaro va uning o'g'illari hamda boburiylar zamonida yanada avj oladi. Bu hol Komron

Mirzoga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. U ham boshqa boburiylar kabi toj-u taxt uchun kurashadi. Gohida do'stlaridan ro'shnolik topgan bo'lsa, gohida o'zi ishongan kishilarning xiyonatiga duch keladi (Komron Mirzoning pushtinlar qabilasi sardori Odam Kaxkardan yordam so'raganini, Odam Kaxkar esa pushtinlarning mehmondo'stlik odatlariga xilof ravishda Komron Mirzoni tutib berishini eslaylik). Komron Mirzo bunday tuyg'ularni Boburga xos ohanglar bilan shunday ifodalaydi:

*Yo bo'lsa muyassar kishiga ilm ila hol,
Yo topsa kishi saltanat avjida kamol,
Yo oshuftayi bo'lsa ko'rub husn-u jamol,
Yo bo'lsa tamom o'zligidin forig'bol.*

Ushbu ruboiyda aytilishicha, inson insonday yashashi uchun bir yo'lni tanlashi lozimligi: yo ilm-hunar bilan shug'ullanishi yoki shoh bo'lib, faqat saltanatni boshqarmog'i yoki ma'shuqaning ishqida husn-u jamoliga oshufta bo'lmog'i yo hamma narsani unutib, tinch, xotirjam o'y-xayollardan xoli yashamog'I lozim. Komron Mirzoning

*Ahbobg'a xush durur rafiq o'lsa kishi,
Imdod ila homiyi tariq o'lsa kishi,
Islom eliga jon bila tarvij qilib,
Bir-biriga bu besh kun shafiq o'lsa kishi*

ruboiysi qofiya va radifning qo'llanilishi, tilining ravon va soddaligi badiiy mahorati jihatidan Boburning "Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi" deb boshlanuvchi ruboiysiga hamohangdir.

Mirzo Bobur hamda Komron Mirzo devonlariga nazar tashlar ekanmiz, har ikkala shoir ham o'z devonlarida g'azal janriga alohida e'tibor qaratganlariga guvoh bo'lamiz. Bobur va Komron Mirzolarining g'azallaridagi mushtaraklikni: hamohanglikni, umumtuyg'ularni, o'xshatmalarni, badiiy mahoratni bir necha g'azallar misolida ko'rishimiz mumkin.

Bobur Mirzo o'z g'azallarida yorning qomatini mumtoz adabiyotda an'ana bo'lmish shamshod daraxtiga o'xshatgani holda:

*Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,
Necha qilursen jonima bedod,*

deya tasvirlasa, Komron Mirzo otasiga xos tuyg'ular bilan yorning qomatini Boburdan ham bo'rttirib, yashirin o'xshatish, ya'ni mubolag'a usuli bilan tasvirlaydiki, yor qomatining shunchalar chiroyli va kelishganligidan bog'dagi shamshod daraxti xijolatda emish:

*Qadingdindur xijil bog' ichra shamshod,
Berib qulluq xatini sarvi ozod.*

Ushbu misralar, o'xshatishlar Komron Mirzoning she'r ilmini yaxshi bilishidan, so'z boyligining kengligidan, go'zal badiiy topilmalar egasi ekanligidan dalolat beradi. Bobur va Komron Mirzolarining ushbu g'azallarini o'qir ekanmiz, go'yo yorning zulmidan, jafolaridan ozor chekkan oshiq ota-bolaning she'r bahsi bo'layotgandek tuyuladi. Bobur g'azallarida o'z ma'shuqasini

*Javrda nodir, zulmda mohir,
Ishvada qodir, g'amzada ustod,*

deya avj pardalarda kuylasa, Komron Mirzo o'z ma'shuqasining oshiqqa labi bilan jon ato etib, kofir ko'zlari bilan jon oluvchi qotil, jallod ekanligini shunday tasvirlaydi:

*Labing jonbaxsh-u asr-u turfadur bu,
Iki kofir ko'zing qattol-u jallod.*

Bobur yorning g'amidan, hijron azobining alamidan va buncha azoblarga sabr-u bardoshining yetmasligidan

*Yor g'amidin, hijron alamidin,
Sabr kamidin nola-yu faryod,*

deya faryod ko'tarsa, Komron Mirzo yorning hajridan, hijron g'amidan, dunyoda goh shod, goh noshod ekanligidan, yorning firog'i tufayli hayoti barbod bo'lganligidan fig'on-u faryod ko'taradi:

*Sening yoding bila hijron g'amidin,
Bor erdim dahr ichinda shod-u noshod.
Hayotim hosilin barbod berdi,
Firoqing ilgidin afg'on-u faryod.*

Zero, yuqoridagi misralardan sezishimiz mumkinki, Mirzo Bobur ham, Komron Mirzo ham oshiq sifatida ma'shuqadan shunchalik darajada ozor topadiki, Bobur o'zini ishqqa muhtalo bo'lgan giriftor oshiq, jabr chekishga moyil, ma'shuqaning zulmiga o'rgangan, odatlangan hisoblaydi:

*Boburi bedil, ey buti qotil,
Javringga moyil, zulmunga mu'tod.*

Komron Mirzo esa ma'shuqaning birgina vasli uchun butun borlig'ini, o'zligini, jon-u jahonini bergan bo'lsa-da, ammo uning bu ishi barbod bo'lganligidan, zoye ketganligidan afsuslanib, o'zini „Komron navmid“, ya'ni umidsiz bir inson deb ataydi:

*Darig'o, Komron navmid, o'ldung,
Berib jon-u jahon naqdini barbod.*

Komron Mirzo she'riyatini o'rganar ekanmiz, o'z ijodida „uyqu“ mavzusidagi murojaatga duch kelamiz:

*Gar uyqudamen, ko'ngul xayoling bila xush,
Gar uyg'oq ko'zum, jamoling bila xush.*

Biz bilamizki, Bobur „baxtini uyquda topgan shoir“ deya ta'riflanadi. Buni Bobur o'z g'azallarida shunday izohlaydi:

*Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquliq baxtimni uyg'otsam,
Kechalar tori mo'yidek beliga chirmashib yotsam, yoki
O'lum uyqusig'a borib jahondin bo'ldim osuda,
Meni istasangiz, ey do'stlar, ko'rgaysiz uyquda.*

Bu hol Komron Mirzo o'z ijodiy faoliyati davomida otasi Bobur Mirzo she'riyatini chuqur o'rganganligini ko'rsatadi hamda ikki adib ijodi o'rtasida yana bir mushtaraklik borligini isbotlaydi. Komron Mirzo otasi va she'riyatdagi ustoz Bobur singari o'z ijodida o'zbek tilidagi so'zlardan o'rinli foydalangan, ularning kuch-qudrati, ichki

imkoniyatlarini, tarovatini chuqur his qilgan. Shu sababli ham Komron Mirzo she'riyatidagi qahramonning lirik kechinmalari, his-tuyg'ularining betakror tasviri asrlar davomida kitobxonni o'ziga maftun qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Маҳрами асрор топмадим. – Тошкент: Ёзувчи, 1993
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Девон / Нашрга тайёрловчи Шафиқа Ёрқин. – Тошкент: Шарқ, 2004.
3. Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014.
4. Иброҳимов А. Бобурийлар мероси. – Тошкент: Меҳнат, 1993.
5. Комрон Мирзо. Девон. – Тошкент: Ёзувчи, 1993.
6. Темурийлар тарихига оид манбалар. – Тошкент, 2010.
7. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. Т., 1996.